

JIZZAX VILOYATI AGROIQLIMIIY RESURSLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Bahromova M.X

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada qishloq xo'jaligini tashkil etishda agroiqlimiy resurslarni o'rganish, alohida xususiyatlarini belglash va shu asosda qishloq xo'jaligini tashkil qilish amaliyoti keng vo'llanila boshlashi haqida ma'lumotlar berilgan. Natijada insonlarning oziq-ovqat va boshqa birlamchi ist'emol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari kengayadi*

Kalit so'zlar: *Havo harorati, shamol, xo'jalik, tog', bioxilmaxillik, landshaft, milliy bog', iqlim, qor, yomg'ir, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi.*

Insonning tabiatdan foydalanishi, mavjud resurslarni o'z xo'jaligini tashkil qilishga to'la jalb qilishi natijasida jamiyat tarqiqiyoti tushunchasi kelib chiqqan. Inson faoliyati tabiiy sharoit va mavjud resurslar bilan bog'liq bo'lganligi uchun xo'jalik yuritish tarzi geografik xarakter kasb etadi. Binobarin kishilik jamiyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan xo'jalik yuritish tarzi hududning agroiqlimiy resurslariga bog'liqdir. Agroiqlimiy resurslarning shakllanishi hududlarning geografik o'rni, iqlim va relef hamda suv omillari bilan belgilanadi. Har bir hududning agroiqlimiy resurslari xususiyatlariga qarab joylarda xo'jalik shaklining vujudga kelish imkoniyatlari ham belgilanadi.

Jizzax viloyati tabiati o'ziga hos va betakror hisoblanadi. Viloyat ikki daryo Zarafshon va Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Shimoliy, shimoliy g'arbiy va sharqiy qismlari tekisliklardan iborat. Viloyatning janubiy va janubi-g'arbiy tomonga ko'tarilib borib tog' tizmalariga qo'shilib ketadi. Hududining janubiy va janubi-sharqdan Turkiston tog' tizmalari tarmoqlari (Morg'uzar tizmasi) g'arbdan Nurota tizmasining Sharqiy qismini egallagan. Bu yerda Nurota, Pistamtog', Turkiston, G'obdintov tog'lari bor; eng baland cho'qqilari Bozorxonim (3401 m Baxmal tumanida) va Shavkattov (4029 m, Zomin tumanining chekka janubida). Shimoliy, shimoli-g'arbi va sharqiy qismi (Mirzacho'l va Qizilqum cho'lining janubi-sharqi) tekislikdan iborat. Jizzax viloyatida unumdor yerlarning ko'pligi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga uni bir butun kompleks rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Viloyatning har xil landshaft turlariga boyligi tabiiy holda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishida asosiy omil bo'lgan va shunga mos holda tabiiy-xo'jalik tarmoqlari shakllangan. Viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish albata tabiiy sharoit, relyefi, iqlim, tuproq sharoiti mehnat resurslari shu kabi omillarga bog'liqdir. Viloyatning har xil landshaft turlariga boyligi tabiiy holda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishida asosiy omil bo'lgan va shunga mos holda tabiiy-xo'jalik tarmoqlari shakllangan. Tog' va tog'oldi hududlarida chorvachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, lalmikor dehqonchilik, rekreatsiya va turizm rivojlangan, tekislik qismi esa eski yangi o'zlashtirilgan, ko'proq paxta ekiladigan hududlardan iborat. Jizzax viloyati respublika




ishlab chiqarishda va madaniy taraqqiyotida salmoqli o‘rin tutadi. Xususan, paxta, g‘alla, sabzavot, meva, chorva mahsulotlari yetishtiriladi. So‘nggi yillarda bog‘dorchilikni rivojlantirishga e‘tibor berilmoqda.

Viloyat bo‘yicha jami 275770 ga qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yer maydonlari bo‘lib, bu yerlarni sug‘orishda Zominsuv, Sangzor, Zarafshon, Eski Tuyatortar kanali, shuningdek Turkiston va Nurota tizmalaridan oqib tushuvchi Achchisoy, Ravot, Jaloir kabi soylar, hamda Mirzacho‘l hududini sug‘orishda Janubiy Mirzacho‘l kanali va Markaziy Mirzacho‘l kollektori orqali suv bilan ta‘minlanadi. Lekin shunga qaramasdan viloyat hududida mavsum davomida suv yetishmasligi muammosi kelib chiqadi. Buning uchun mahalliy daryo va soylarning suvlaridan unumli foydalanish maqsadida kichik hajmdagi suv omborlari qurish, qishki yog‘inlarni va namlikni uzoqroq saqlash va yer osti suvlarining sathini ko‘tarish uchun tog‘ yonbag‘irlarida sun‘iy archazorlar tashkil qilish lozim bo‘ladi. Buning yana bir tomoni hududda namlik koeffitsentini biroz bo‘lsada oshirishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligini biz o‘z navbatida ikkiga bo‘lamiz bular: dehqonchilik va chorvachilik bu ikkala soha ham insonlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash vazifasini bajaradi.

Viloyatda Sirdaryoning qadimgi terrassilari bo‘lgan Mirzacho‘l hududidagi sug‘oriladigan yerlarda paxta, g‘alla, yem-hashak va boshqa ekinlar ekiladi. Adirlarda, o‘rtacha balandlikdagi tog‘ yonbag‘irlarida, lalmi ekinlar hayldalmaydigan cho‘l hududlarida hamda tog‘ yonbag‘irlarida yaylov va pichanzorlar sifatida foydalaniladi. Ho‘jalik yerlaridan foydalanishda muntazam ravishda kuzatish ishlari olib borilib yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida yer kadastr yuritish ko‘zlangan maqsadga erishishda eng maqbul uslub hisoblanadi. Bu sohalarda har yilli o‘shishni kuzatamiz, har yili qaysidir tarmoq yetakchilik qiladi va undan yaxshi natija olinadi. Viloyatning 12 tumanidan 10 tasida paxta ekiladi. 1994-yildan Jizzax viloyatida g‘alla ekiladigan maydon keskin oshirildi. 2000-yilda 317,7 ming t g‘alla tayyorlangan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2023-yilda 576,9 ming tonnage yetdi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 27 577,1 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 26 830,1 mlrd. so‘mni (104,1 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 1,6 mlrd. so‘mni (101,4 %), o‘rmon xo‘jaligida 428,3 mlrd. so‘mni (103,2 %), baliqchilik xo‘jaligida 317,1 mlrd. so‘mni (100,9 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘shishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

Xususan yuqori o‘shish sur‘atlari Zafarobod (110,9 %), Arnasoy (108,5 %), Sharof Rashidov (107,6 %) va Do‘stlik (107,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shuningdek, o‘z navbatida Mirzacho‘l (89,4 %) va Yangiobod tumanlarida (100,5 %) nisbatan past o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlashimiz lozimki, viloyatda g‘allachilikni rivojlantirish uchun tabiiy sharoitlar va boshqalar imkoniyatlar mavjud, Viloyat qishloq xo‘jaligida pillachilik ham salmoqli o‘rin tutadi. Joylarda yiliga 440—480 t pilla yetishtirish imkonini beradigan tabiiy resurslar yaratildi. Qishloq xo‘jaligida kartoshka, poliz, sabzavot, uzum, ho‘l meva yetishtirish bilan ham shug‘ullaniladi. Bir-

yilda 25—30 ming t kartoshka yetishtiriladi. Poliz va sabzavotdan-yiliga oʻrtacha 70 ming t dan hosil olinadi.



1-rasm.2023- yilning yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari)

Viloyatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keladi (umumiy hajmga nisbatan 66,4 foiz). Ikkinchi o'rinda biz fermer xo'jaliklariga to'g'ri keladi, ya'ni 25,8% tashkil etildi. Dehqonchilik 2023- yilning yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 10 220,7 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 107,2 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 38,7 foizni tashkil qildi.

Jizzax viloyatining agroiqlimiy resurslari va qishloq xo'jaligini tashkil etish, shu bilan birga tabiiy geografik rayonlashtirishdagi o'rni O'zbekiston hududini tabiiy geografik o'rganish asnosida belgilab berilgan. SHu bilan birga viloyat tabiiy geografik xususiyatlari bo'yicha alohida tadqiqotlar o'tkazilgan. Ushbu tadqiqotlar asosida viloyat hududi ham tog', ham tekislik mintaqalariga ta'luqli ekanligi ma'lum bo'ladi. Binobarin viloyatda qishloq xo'jaligini tashkil etish hududiy tafovutlarni hisobga olish bilan kechishi taqozo etiladi. Ishni bajarishda Jizzax viloyati tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini hududiy tavsiflangan adabiyotlardan jumladan S. Nishonov va L. Alibekovlarning viloyat tabiiy sharoiti va resurslariga bergan tavsiflaridan keng foydalanildi. Yuqorida aytilganidek, viloyat tumanlari ikki mintaqa, tog' va tekisliklarga ajraladi. Ularning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslaridan kelib chiqib xo'jalik tizimi shakllantirilgan. Sobiq ittifoq davrida tekislik mintaqasiga kiruvchi o'zlashtirilgan cho'l tuamlari hududi to'lig'icha paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan edi. Bu o'z navbatida hududlarning o'ziga xos agroiqlimiy resurslari imkoniyatlari hisobga olinmasligi va ushbu tumanlarda tabiiy –ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi.



Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Viloyat tumanlarining agroiklimiy resurslariga mos xo'jalik yo'nalishlarini shakllantirish davr taqozosiga aylandi. SHunday sharoitda hudularga xos resurslardan oqilona foydalanish masalasiga to'g'ri yechim topish, kelajakda mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti shu bilan birga tabiat va inson munosabatlaridagi muvozanatni saqlashga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алибеков Л., Нишонов С. «Природные условия и ресурсы Джизакской области» Т. «Узбекистан» 1978 г .
2. Xoldorova, G. (2021). МИРЗАЧЎЛДА АТРОФ-МУҲИТНИ МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).
3. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
5. Kholdorova, G. M. (2020). Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(3), 3136-3147.
6. Холдорова, Г. М. (2021). Роль картографических методов в классификации орошаемых геосистем мирзачуля. *Экономика и социум*, (1-2), 640-647.
7. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. *Проблемы современной науки и образования*, (4 (86)).
8. Usmanov, M. (2020). Мирзачўл табиий географик райони худудининг тупроқ қоплами мониторинг тизимини ташкил этишнинг амалий жиҳатлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.